



Axborot xabarnomamizning o'n uchinchi soniga xush kelibsiz!

[Yevropa Ittifoqining](#) (YEI) [Xalqaro savdo markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasiga bag'ishlangan o'n uchinchi axborot xabarnomani e'tiboringizga havola etishdan mamnunmiz. Loyiha O'zbekistonning [Jahon savdo tashkilotiga](#) (JST) a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatlab, uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yordam berishga qaratilgandir.

Ushbu sonda asosiy e'tibor 2023-yilning oktabr-dekabr oylari oralig'ida O'zbekistonga ko'rsatilgan yordamga qaratiladi. Ushbu chorakdagi eng muhim voqealardan biri JSTda noyabr oyida bo'lib o'tgan Ishchi guruh (IG)ning 7-yig'ishi bo'lib, unda JSTga a'zo bo'lish muzokaralari olib borildi. Bu boradagi O'zbekiston ehtiyojlari loyihaning turili tadbirlaribo'yicha belgilab olindi. Birinchidan, loyiha muzokara jamoasini IG yig'ilishiga tayyorgarlik jarayoniga ko'maklashish maqsadida muzokaralarning asosiy yo'nalishlaridan biri tovarlar bozoriga chiqish mavzusida uch kunlik o'quv seminarini tashkil etdi. Unda tovarlar savdosi hamda xizmatlar savdosi bo'yicha ikki tomonlama muzokaralarga tayyorgarlik uchun amaliy tavsiyalar berildi. Yana bir muhim natijalardan biri oktabr oyida O'zbekistonga topshirilgan Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va sifati to'g'risidagi qonun loyihasining ko'rib chiqish jarayonining yakunlanishi bo'ldi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу бундани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida unga qo'shilayotgan mamlakatning amaldagi savdo-iqtisodiy qonunlari va siyosati muhokamaning diqqat markazida turadi va a'zolik shartlari ular asosida kelishiladi. Muzokaralar Ishchi guruh (IG) yig'ilishlari zahiridako'p tomonlama hamda ikki tomonlama muzokaralar orqali amalga oshiriladi va loyiha O'zbekistonga JSTga a'zo bo'lishning ushbu jarayoniga tayyorgarlik ko'rishda yordam bermoqda.

2023-yil 16-noyabrda bo'lib o'tgan Ishchi guruh (IG)ning 7-yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish doirasida loyiha tovarlar savdosi va xizmatlar savdosi sohalaridagi ikki tomonlama muzokaralarni qo'llab-quvvatlab, ularni olg'a siljishiga yordam berdi. Bu jarayon jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu yig'ilishida JSTning qo'shimcha yana to'rtta a'zosi bilan tovarlar bo'yicha muzokaralarni yakunlangani e'lon qilindi va umumiy soni yettita bo'ldi, bular Angola, Gruziya, Moldova Respublikasi, Mo'g'uliston, Nigeriya, Saudiya Arabistoni va Turkiya.



O'zbekistonning bosh muzokarachisi janob Azizbek Urinov va Fotosurat: XSM
XSM ijrochi direktori Pamela Kok-Xamilton xonim JSTda
Ishchi guruh (IG)ning 7-yig'ilishidan so'ng Jenevada uchrashib,
O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini qo'llab-
quvvatlashning bo'lajak ustuvor yo'nalishlarini muhokama
qilish imkoniga ega bo'ldi.

Xizmatlar savdosi sohasida xorijiy xizmatlar va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning O'zbekiston bozoriga kirish shartlarini belgilaydigan xizmatlar sohasidagi majburiyatlar bo'yicha muzokaralarni olg'a siljitish bo'yicha konsultativ yordam ko'rsatishni davom ettirdi.

Loyiha, shuningdek, O'zbekistonning JST a'zolari bilan IGning 7-yig'lishi va tegishli ikki tomonlama uchrashuvlarda ishtirok etishi uchun O'zbekistonning muzokaralar jamoasi yetti nafar a'zosining Jenevaga yo'l xarajatlarini qopladi (batafsil ma'lumot uchun Ishchi guruh(IG)ning 7-yig'lishi haqida [veb-hikoyani](#) o'qing).

Batafsil Ma'lumot

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lishning yana bir asosiy komponenti milliy qonunlarning JSTning tegishli bitimlariga muvofiq kelishiga ishonch hosil qilishdir. Ushbu maqsadni qo'llab-quvvatlash uchun loyiha O'zbekiston milliy qonunlarini qayta ko'rib chiqishga yordam bermoqda.

O'tgan chorakda bu ko'mak ikkita asosiy yo'nalish, ya'ni savdo huquqiy xavfsizlik vositalari va savdo bilan bog'liq investitsiya choralari (JSTning TRIMS kelishuvi bilan tartibga solinadi) bo'yicha boshlandi.

Savdo bilan bog'liq investitsiya choralariga kelsak, loyiha investitsiyalar bilan bog'liq mavjud qoidalar va dasturlarning TRIMS bitimiga muvofiqligini baholashga qaratilgan.

Bundan tashqari, loyiha savdo huquqiy xavfsizlik vositalari, xususan, antidemping, kompensatsiya bojlari va himoya choralari bo'yicha O'zbekiston uchun yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqayotgan xalqaro ekspertlar guruhining bir qismidir.

Ushbu faoliyatloyihaning O'zbekiston savdo huquqiy xavfsizlik vositalarining JST ko'rsatmalariga muvofiqligi bo'yicha ilgari amalga oshirilgan tahliliga asoslanadi.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

JST bitimlarining texnik talablarini amalga oshirish uchun ilg'or texnologiyalar va muhimko'nikmalarni rivojlantirish mamlakatning JSTga a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatlashning asosiy tamoyilidir. Loyiha o'quv seminarlar va texnik ko'mak orqali JST bitimlari va a'zolikning texnik jihatlarini bo'yicha davlat organlari xizmatchilari o'rtasida zarur salohiyatni shakllantirishga yordam

Tovarlar bozoriga kirish mamlakatning JSTga a'zo bo'lish jarayonidagi muhim masala ekanligi uchun, Ishchi guruh (IG)ning 7-yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida O'zbekiston muzokara jamoasini ushbu muhim mavzuga yo'naltirish maqsadida 2023-yil 4-6 oktyabr kunlari Toshkentda 3 kunlik seminar bo'lib o'tdi. Dastlabki ikki kun majburiyatlar ro'yxati va tovarlar bozoriga kirish bo'yicha ikki tomonlama muzokaralar mexanizmiga bag'ishlandi. So'nggi kun Tojikiston va Qozog'iston vakillari ishtirok etib, o'z mamlakatlarining JSTga a'zo bo'lish tajribasi bilan o'rtoqlashdi (batafsil ma'lumot uchun [veb-hikoya](#)ni o'qing).



O'zbekiston muzokara jamoasi vakillari JSTda ishchi guruhining 7-yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida tovarlar bozoriga kirish bo'yicha 3 kunlik seminarda ishtirok etmoqda.

Fotosurat: XSM



O'zbekiston muzokara jamoasi vakillari JSTda (Jeneva) A'zolik Foto: JST
bo'yicha muzokaralarda JST qoidalari bo'yicha bir haftalik
o'quv treningda qatnashmoqda.

2023-yilning 4-8-dekabr kunlari JST tomonidan XSM bilan hamkorlikda tashkil etilgan A'zolik bo'yicha muzokaralarda JST qoidalari bo'yicha bir haftalik trening bo'lib o'tdi. Loyiha treningning yaxshiroq o'zlashtirilishi uchun rus tiliga tarjimasini ta'minlab berdi(batafsil ma'lumot [JST | 2023 yilgi yangiliklarga - Jenevada A'zolik bo'yicha muzokaralarda JST qoidalari mavzuida trening kursi boshlandi](#)).

Loyiha hukumat a'zolari davralarida xalqaro savdo va ko'p tomonlama savdo tizimi bo'yicha bilimlarni shakllantirishga ko'maklashishda davom etmoqda. Ushbu bosqichda olti nafar hukumat amaldorlari Shveysariyaning Bern shahrida Jahon savdo instituti (WTI)ning 2024 yilgi Qishki akademiyasida ishtirok etadi. Jahon savdo institutining Qishki akademiyasi savdo va investitsiya qonunchiligi va siyosatidagi ilg'or masalalarni qamrab oladi.

Nomzodlarni ro'yxatga olish XSM tomonidan tashkil etildi. Mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi vakillaridir.



Jahon savdo instituti (WTI) direktori, Professor, Doktor Piter L.H. Van den Bosshe, WTI, Berndagi sessiyani ochmoqda.

Fotosurat: Jahon savdo instituti (WTI)

Kurslar 2024-yil yanvar va fevral oylarida bo'lib o'tadi va quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: Chegara choralari va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST huquqi; Dempingga qarshi va himoya choralari bo'yicha JST huquqi; Subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha JST huquqi; hamda Xizmatlar savdosi va siyosati huquqi(qo'shimcha ma'lumot uchun [Qishki Akademiya | WTI](#) ni tashrif eting).

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

O'tgan chorakda savdodagi texnik to'siqlar (STT) va sanitariya-fitosanitariya (SFS) texnik yo'nalishlarida salohiyatni oshirish bo'yicha ishlar jadal sur'atlarda olib borildi.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan so'ralgan Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va sifati to'g'risidagi qonun loyihasini ko'rib chiqish jarayoni chorak davomida yakunlandi.

Jarayon o'tgan chorakda boshlangan bo'lib, qonun loyihasi JSTning SFS bitimi va uning asosida yotuvchi xalqaro standart - Alimentarius Kodeksiga muvofiqligini ta'minlash uchun bir necha marotaba qayta ko'rib chiqildi va o'zgartirishlar kiritildi. Qonun loyihasi oktabr oyida O'zbekiston muhokamasiga topshirildi, bu o'z navbatida uning qabul qilinishi bo'yicha parlament jarayonining boshlanishiga olib keladi.

STT sohasida iyul oyida Xalqaro standartlashtirish bo'yicha tegishli organlar tomonidan xalqaro standartlarni qabul qilish bo'yicha boshlangan o'quv seminarlar oktabr oyida Standartlarni ishlab chiqishda ilg'or tajribalar va milliy standartlar organlarini moliyalashtirish bo'yicha yakuniy modul bilan yakunlandi. To'liq kurs onlayn tarzda 300 ga yaqin texnik mutaxassislarga taqdim etildi, ularning ba'zilari bir nechta modullarda qatnashdi. O'quv seminarlarida keng ko'lamli texnik organlar vakillari ishtirok etdi, jumladan Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Standartlar instituti va Milliy metrologiya instituti (to'liq kurs haqida batafsil ma'lumot olish uchun [veb-hikoyani](#) o'qing).

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri xususiy sektor vakillari orasida JSTga a'zolik natijasida eksportchilar uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial imkoniyatlar haqida xabardorlikni oshirishdan iborat. O'tgan chorakda mamlakatimizning turli hududlarida xususiy sektor ishtirokchilari uchun JSTning qishloq xo'jaligi qoidalarini bo'yicha keng qamrovli o'quv seminarlari o'z nihoyasiga yetdi. Milliy hamkorlar bilan xususiy sektor uchun kelajakdagi ko'maklashish masalalari muhokama qilinadi.

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)